

## Psixologik manipulyatsiya va uning jinoyatlar yuzaga kelishidagi roli

Marvarid Mahmud qizi Xudoyorova  
Termiz davlat universiteti

**Annotatsiya:** Jamiyatda turli xil jinoyatlar sodir bo‘lib turadi va ba’zi jinoyatlar yashirin, manipulyatsiya orqali amalga oshirilgan bo‘ladi. Psixologik manipulyatsiyaning qanday psixologik mexanizmlar yordamida jinoyatga aylanishi, uning shaxsiy va ijtimoiy kontekstda qanday shakllanishini o‘rganish zarur va dolzarb mavzulardan biridir. Xususan, xorijlik psixologlar tadqiqotlari asosida manipulyatsiya va jinoyatlarning o‘zaro bog‘liqligi haqida ma’lumotlar taqdim etiladi. Manipulyatsion shaxslarning xulq-atvori, psixopatlar va oilaviy zo‘ravonlik holatlari orqali jinoyatlarning qanday sodir bo‘lishi shuningdek, jinoyatlarning oldini olish va manipulyatsion shaxslarning xatti-harakatlarini oldindan bilish zarur hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** psixologik manipulyatsiya, jinoyatlar, psixopatlar, oilaviy zo‘ravonlik, manipulyatsion shaxslar, ijtimoiy psixologiya, jinoyatchilikning oldini olish

## Psychological manipulation and its role in the occurrence of crimes

Marvarid Mahmud kizi Khudoyorova  
Termiz State University

**Abstract:** Various crimes occur in society, and some of them are hidden, committed through manipulation. It is essential and timely to study the psychological mechanisms through which manipulation evolves into criminal behavior and how it manifests in personal and social contexts. Based on the research of foreign psychologists, this article presents insights into the interrelation between manipulation and crimes. The analysis focuses on the behavior of manipulative individuals, psychopaths, and cases of domestic violence to uncover how crimes are committed through manipulation. Additionally, it emphasizes the importance of predicting manipulative behavior and preventing such crimes.

**Keywords:** psychological manipulation, crimes, psychopaths, domestic violence, manipulative individuals, social psychology, crime prevention

**Kirish.** Shaxs rivojlanib borar ekan, jamiyatda o'z o'rnini topishda har xil vaziyatlar bilan yuzlashadi va bu ruhiyatga ta'sir etmay qolmaydi. Atrofimizda turli xarakterli insonlar bor va ba'zan kim manipulyator ekanini ajrata olmaymiz. Psixologik manipulyatsiya o'zi nima? Psixologik manipulyatsiya-bu boshqa odamlarning xatti-harakatlari, fikrlari yoki his-tuyg'ularini yashirin tarzda o'zgartirish uchun ishlatiladigan psixologik ta'sir etish usuli hisoblanadi. Bunday jarayonda manipulyator o'zining maqsadlariga erishish uchun qurbonning hissiy,emotsional holati yoki zaif tomonlaridan foydalanadi. Psixologik manipulyatsiya ko'pincha kuch, nazorat yoki manfaat olishga qaratilgan bo'ladi va u manipulyator tomonidan boshqa insonning irodasi yoki manfaatlari, xohish-istaklarini hisobga olmay amalga oshiriladi. Psixologik manipulyatsiya turli shakllarda namoyon bo'ladi va ularning eng keng tarqalgan turlari haqida ma'lumot beraman.

Psixologik manipulyatsiya turlari:

1. Emotsional manipulyatsiya: Qo'rquv, aybdorlik,sevgi kabi hissiy holatlardan foydalanish.

2. Kognitiv manipulyatsiya: Faktlarni buzib ko'rsatish yoki yolg'on ma'lumotlar bilan insonni boshqarish.

3. Ijtimoiy manipulyatsiya: Guruh bosimi yoki ijtimoiy maqomdan foydalanib ta'sir o'tkazish.

4. Psixologik bosim: Ovoz balandlatish, haqorat qilish, tahdid qilish yoki qo'rqitish orqali ta'sir o'tkazish.

Psixologik manipulyatsiya ko'p hollarda jinoyat sodir etilishida asosiy omil bo'ladi. Odatda, manipulyatorlar o'z qurbonlarini aybdorlik hissi, qo'rquv yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali jinoyatga jalb qiladilar. Ko'plab tadqiqotlardan ma'lumki, manipulyatsion erkaklar o'z ayollariga nisbatan zo'ravonlik qilgani va ularni noqonuniy harakatlarga majburlagani aniqlangan. (Smith, J., & Williams, K., 2020)

Psixologik manipulyatsiyaning o'zi ma'lum darajada xavfli bo'lishi mumkin, negaki bu jarayon odamlarni boshqarishning nomaqbul va etikaga to'g'ri kelmaydigan usulidir. Jinoyatlar esa faqat bevosita huquqni buzish emas, balki ko'pincha psixologik manipulyatsiya orqali ham sodir bo'lishi ehtimoli yuqori. Masalan oilaviy zo'ravonlik, ish joyida ta'qib qilish, yoki moliyaviy manipulyatsiya kabi holatlar ko'pincha manipulyatsiya va jazolashga olib keladigan jinoyatlardir.

Bundan tashqari, manipulyatsiyaning yana bir shakli - bu ish joyida yoki ijtimoiy muhitda sodir bo'ladigan ta'qib va zo'ravonlikdir. Ba'zi tadqiqotchilarga ko'ra, manipulyatorlar, ba'zida o'z qurbondan foydalangan holda jinoyatlarni amalga oshirish uchun ularni ma'naviy yoki hissiy manipulyatsiya qilishadi. Bu kabi manipulyatsiya, xususan psixopatlar tomonidan ko'proq ishlatiladi. Psixopatlar, boshqalarni o'ziga qarshi qo'yish va ularni manipulyatsiya qilish orqali jinoyatlarni

sodir etadilar. Amerikalik psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, manipulyatsiya qilingan shaxslarning jinoyatga boshlash ehtimoli yuqoriligi aniqlandi. Xill va boshqa olimlar manipulyatsiya va jinoyatlarning o'zaro bog'liqligini o'rganishdi. Ular manipulyatsiya qilingan shaxslarning stress, depressiya, agressiya va boshqa psixologik bosimlarga duch kelishlari, ularni jinoyatga undashi mumkinligini ko'rsatdilar. Tadqiqotlar, manipulyatsiya qilingan shaxslarning jinoyatlarni amalga oshirishda yanada osonroq yo'l tutishlarini tasdiqladi.

Bundan tashqari, oilaviy zo'ravonlik holatlarida manipulyatsiya va jinoyatlarning o'zaro bog'liqligini o'rganan psixologlar, manipulyatsiya qilingan shaxslarning o'z oila a'zolaridan xavf tug'ilishi mumkinligini ta'kidlashadi.

Psixologik manipulyatsiya orqali sodir etilgan jinoyatlar mavzusida chet el psixologlari tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Bu mavzu psixologiya va jinoyatshunoslikda ham ancha o'rganilgan, ayniqsa manipulyatsiyaning turli shakllari, uning psixologik va ijtimoiy oqibatlari, shuningdek jinoyat jarayonlaridagi o'rni haqida ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Quyida ba'zi tadqiqotlar va ular tomonidan o'rganilgan masalalar keltirilgan:

#### 1. Gaslighting va manipulyatsiya

Gaslighting - bu manipulyatsiyaning bir shakli bo'lib, unda biror shaxs boshqasining ongini chalg'itib, uni o'z xotirasi, hissiyotlari va fikrlari to'g'riligiga shubha uyg'otishga majbur qiladi. Bu turdagi manipulyatsiya orqali insonni yanada irodasini zaiflashtiradi va tobe qilib oladi. O'rganilgan psixologik manipulyatsiya turlari orasida gaslighting eng keng tarqalgan va jinoyatchilikda tez-tez uchraydigan usuldir.

#### Tadqiqotlar:

D.J.Palmer (2015) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda gaslightingning psixologik manipulyatsiyaga kirishini, uning uzoq muddatli ta'sirlarini va manipulyatsiya qilgan shaxslar va qurbonlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilgan.

R.J.Green (2017)ning tadqiqotlari gaslightingni oilaviy zo'ravonlik va manipulyatsiya jarayonlarida, ayniqsa, oilaviy jinoyatlar kontekstida ko'rib chiqdi. Tadqiqotda gaslightingning jinoyatchilar tomonidan o'z qurbonlarini izolyatsiya qilish va ularga shubha uyg'otish uchun ishlatilishi batafsil tahlil qilingan.

#### 2. Manipulyatsiya va jinoyatchilarni qayta ijtimoiylashtirish.

S.M.Johnson (2019) ning tadqiqotlari manipulyatsiyaning jinoyatchilarning rehabilitatsiyasiga ta'siri haqida. Psixologik manipulyatsiya o'rganilganda, jinoyatchilarni qayta ijtimoiylashtirish va ularni manipulyatsion xulq-atvorlardan ozod qilishdagi samarali psixoterapevtik yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

D.C.Wagner va A.K.Nichols (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotda manipulyatsiya orqali sodir etilgan jinoyatlar bilan shug'ullanishda psixologik

yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilingan. Ular, shuningdek, manipulyatsiya qiluvchi shaxslarning rehabilitatsiya jarayonidagi muammolarni ko'rsatgan.

### 3. Manipulyatsiya va jinoyatlar

Psixologik manipulyatsiyaning jinoyatchilikda roli:

S.J.Orbach (2016) ning tadqiqotida manipulyatsiya holatlari jinoyatga qanday ta'sir qilishi, ularni sodir etishda qanday psixologik mexanizmlar ishlatilishi va jinoyatchilar tomonidan manipulyatsiya qilgan qurbonlar tahlil qilingan. U manipulyatsiya orqali sodir etilgan jinoyatlar, ayniqsa, huquqiy tizimda qanday aniqlanishi haqida fikr bildirdi.

### 4. Manipulyatsiya va huquqiy qarorlar

Tadqiqotlar:

J.L.Rayner (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotda psixologik manipulyatsiya va uning huquqiy qarorlarga ta'siri o'rganilgan. Bu tadqiqotda manipulyatsiya qilgan jinoyatchilarning sudda qanday xulq-atvor ko'rsatishi va manipulyatsiya ta'siriga duchor bo'lgan shaxslarning sudga ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar asosida kelib chiqadigan umumiy xulosalar:

Manipulyatsiya va jinoyatlar orasidagi bog'liqlik psixologik jarayonlarni chuqur o'rganishga muhtojdir. Psixologik manipulyatsiya orqali sodir etilgan jinoyatlar ko'pincha sudda isbotlashda qiyinchiliklarga olib keladi, chunki qurbonlarning o'ziga ishonishi pasayib, ular manipulyatsiyani tan olishda qiynaladi.

Xulosa qilib aytganda, psixologik manipulyatsiya jinoyatlar bilan bo'liq bo'lishi, ayniqsa, uning turli shakllarini o'rganish zaruriyatini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, manipulyatsiya orqali odamlarning ongini boshqarish, ularni noto'g'ri qarorlar qabul qilishga majburlash va huquqiy cheklovlar asosida ishlov berish, ko'pincha jinoyatlarning sodir bo'lishiga olib keladi. Xususan, manipulyatorlar, o'z maqsadlariga erishish uchun boshqalarni manipulyatsiya qilib, ularga zarar yetkazishi yoki hatto jinoiy faoliyatni amalga oshirishga undashi mumkin.

Manipulyatsiyaning turli shakllari, jumladan, psixologik, emotsional va kognitiv manipulyatsiya jinoyatlarning yuzaga kelishida asosiy omil bo'lishi mumkin. Misol uchun, oilaviy zo'ravonlik holatlari, psixopatlarining manipulyatsiya usullari orqali jinoyatlarni sodir etishi, yoki yo'llarida to'siqlarni bartaraf etish uchun manipulyatsiyaga asoslangan jinoyatlar, bu sohada muhim ijtimoiy xavflarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, manipulyatsiyaga uchragan shaxslarning psixologik holati ularda psixologik zo'ravonlikka uchrash va jinoyatga aloqador holatlarni yuzaga keltirish ehtimolini oshiradi. Shu bois, manipulyatsiyaning ilgari surilishi va jinoyatlarning oldini olish uchun psixologik yordam, profilaktika va psixologik testlarni o'rganish zarurdir. Bunday yondoshuvlar manipulyatsiya va

jinoyatlarning oldini olishga yordam beradi va jamiyatda sog‘lom psixologik muhitni yaratish uchun muhim qadam bo‘lishi mumkin.

Jinoyatlarning oldini olishda manipulyatsion shaxslarning xulq-atvori va psixologik xususiyatlarini to‘g‘ri tahlil qilish, shuningdek, jamiyatda manipulyatsiya xavfini kamaytirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish muhimdir. Bu sohada psixologlar, huquqshunoslar va boshqa mutaxassislarning hamkorligi, manipulyatsiyaga asoslangan jinoyatlarning oldini olishda samarali strategiyalarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Stark, E. (2007). *Coercive Control: How Men Entrap Women in Personal Life*. Oxford University Press.
2. Hare, R. D. (1999). *Psychopathy: Theory, Research, and Implications for Society*. Springer Science & Business Media.
3. Lammers, J., Stoker, J. I., Jordan, J., Pollmann, M., & Fischer, A. H. (2011). Power Increases Infidelity Among Men and Women. *Psychological Science*, 22(9), 1191-1197.
4. Dutton, D. G., & Painter, S. L. (1981). Psychological and Emotional Abuse in Violent Relationships. *Canadian Journal of Behavioral Science*, 13(3), 240-257.
5. Bancroft, L. (2003). *Why Does He Do That? Inside the Minds of Angry and Controlling Men*. Berkley Trade.
6. Freeman, R. (2012). *The Art of Gaslighting: How Narcissists and Psychopaths Use Gaslighting to Control You*. London: Routledge.
7. Miller, L. S., & Gaughan, E. T. (2000). *Psychological Manipulation: How to Recognize and Cope with Manipulative Behavior*. New York: HarperCollins.
8. McGregor, J. (2015). Manipulation and Control: Psychological Tactics Used in Domestic Violence. *Journal of Social Psychology*, 56(4), 40-58.
9. Gassner, R. (2004). *The Psychology of Manipulation: Understanding Manipulative Behavior*. New York: McGraw-Hill Education.